

Tamarix androssovii, ajriq *Aeluropus lagopoides*, qorabaroq *Halostachys caspica*, qamishlar *Phragmites australis* yaqshi rivojlangan. Qirlarda sho'ralar *Amaranthus albus* keng tarqalgan. Shaharning markazida manzarali daraxtlar ekilgan.

Qamishzorlik va to'qaylarda chiyabo'ri *Canis aureus*, quyon *Lepus tolai*, ondatra *Ondatra zibethicus*, bo'rsiq *Meles meles*, qushlardan qirg'ovul *Phasianus colchicus*, yovvoyi o'rdak *Anas platyrhynchos*, kaptarlar *Columba livia*, qarqaralar *Ardea cinerea*, saqoqush *Pelecanus onocrotalus*, qoravoylar *Phalacrocorax carbo*, qumri *Streptopelia decaocto* va boshqalar uchraydi. Sudralib yuruvchilardan toshbaqa *Testuda horsfieldi*, kaltakesaklar *Eremias velox*, sut emizuvchilardan kemiruvchilar *Citellus fulvus* yashaydi. Amudaryo va ko'llarda sazan *Cyprinus carpio*, oq sla *Stizostedion lucioperca*, oq amur

Tenopharyngodon idella, laqqa *Silurus glanis* va boshqa baliqlar bor.

Shaharga yaqin yerlarda qishloq xo'jaligining ko'pchilik tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Asosan poliz ekinlari, g'allachilik, paxtachilik, mevachilik, uzumchilik, go'sht va sut maxsulotlarini yetkazib beradigan chorvachilik yaxshi rivojlangan. Bu yerlarda ko'pchilik qushlar uya quradi va oziqlanadi. Ular qishloq xo'jaligiga zarar keltiruvchi hasharotlar, kemiruvchilar bilan oziqlanib ularning sonini boshqarib turadi va haddan tashqari ko'payib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

So'ngi yillarda Nukusda shahar algomeratsiyasining rivojlanishi bu yerda yashaydigan qushlarning hayot tarzining o'zgarishiga va bazi bir sinantrop turlar sonining ko'payishiga olib kelmoqda. Ularning biologiyasi va ekologiyasini o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Аметов М. Птицы Каракалпакии и их охрана. – Нукус: «Каракалпакстан», 1981. –С. 138.
 2. Ережеев С.Е. Флора Каракалпакии, ее хозяйственная характеристика, использование и охрана. –Т.: «Фан», 1978. –С. 300.
 3. Матмуратов Ж. Агроклиматические условия Северо-Западного Узбекистана. –Нукус: «Каракалпакстан», 1989. –С. 255.
 4. Ametov Ya., Ametova N., Jumanov M., Ayimbetova Sh., Abdikarimova M. Fauna and ecology of the Nukus city birds // Journal of Advanced Zoology. ISSN: 0253-7214. Volume 44. Issue S-2. – India: 2023. – P. 3186-3192.
 5. Matekova G.A., Turdibaev K., Ametova N.I., Ametov Ya.I., Jumanov M.A. Ecological features of the ornithofauna of the karakalpak part of the Usturt Plateau // International Journal of Entomology Research, Volume 7, Issue 12, 2022. – P. 25-28.
 6. Turdimuratova J., Ametov Ya., Ayimbetova Sh., Alpishaeva A., Jumabaeva A. Health Impact Assessment of the Surface Water Pollution in Nukus, Karakalpakstan // International Journal of Genetic Engineering 2024, 12(4): DOI: 10.5923/j.ijge.20241204.02. – P. 48-53.
- REZYUME.** Maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining tabiiy-geografik va ekologik holatiga oid materiallar keltirilgan. Jumladan, shaharning geografik joylashuvi, oxirgi 14 yildagi (2010-2023-yillar) havo harorati va yog'ingarchilikning o'zgarishi, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosining hozirgi holati bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье излагаются материалы по естественно-географическому и экологическому состоянию Нукуса – столицы Республики Каракалпакстан. В частности, описано географическое положение города, изменения температуры воздуха и осадков за последние 14 лет (2010-2023 гг.), современное состояние почвы, флоры и фауны.

SUMMARY. The article presents materials on the natural-geographical and ecological state of Nukus, the capital of the Republic of Karakalpakstan. In particular, it describes the geographical location of the city, changes in air temperature and precipitation over the past 14 years (2010-2023), the current state of the soil, flora and fauna.

NAVOIY VILOYATI AHOLINING ISH BILAN BANDLIGINING HUDUDIY TAFOVUTLARI VA ULARNI RAYONLASHTIRISH

Sh.Sh.Norov – doktorant

Navoiy davlat universiteti

Tayanch so'zlar: mehnat resurslari, mehnatga layoqatli aholi soni, aholi bandligi, aholi dinamikasi, aholi zichligi, sug'orma dehqonchilik rayoni, cho'l-yaylov rayoni, tog'-yaylov rayoni.

Ключевые слова: трудовые ресурсы, работающее население, занятость населения, динамика численности населения, плотность населения, регион орошаемого земледелия, пустынно-пастбищный регион, горно-пастбищный регион.

Key words: labor resources, working population, population employment, population dynamics, population density, irrigated farming region, desert-pasture region, mountain-pasture region.

Kirish. Jahonda mehnat resurslari sonining ortib borishi aholini ish bilan ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish murakkab vazifa bo'lmoqda. Shu sababli mehnat resurslari va aholi bandligi muamolari bilan ko'plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ushbu muammo bilan xorijda J.Graund, A.Smit, T.R.Maltus, A.Geyar, A.Marshall, A.Piru J.M.Keyns, N.N.Baranskiy, A.A.Asiyeva, E.L.Vidovina, A.Mirta mehnat resurslari masalalari bo'yicha bir qator yondashuvlar va ilmiy nazariyalarni ko'rishimiz mumkin. O'zbekistonda A.A.Qayumov, A.S.Soliyev, Q.X.Abduraxmonov, O.B.Ota-Mirzayev, L.P.Maksakova, A.A.Ismoilov, N.N.Yuldashev, R.B.Qodirov, L.Z.Ibragimov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Navoiy viloyati aholi bandligining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra alohida ajralib turadigan jihatlari mavjuddir. Viloyat aholi bandligi bir qancha omillar ta'sirida hududiy tafovutlarni keltirib chqaradi. Aholining ish bilan bandligiga ta'sir etuvchi eng asosiy omillarni ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin, ya'ni ananaviy ekzogen va endogen omillar. Geografik geografik tadqiqotlarda birinchi navbatda endogen omillar tadqiq etilib keyingi navbatda ekzogen omillar tahlil qilinadi. Aholi bandligini iqtisodiy-ijtimoiy tadqiq etishda dastlab ekzogen omillarni tahlil qilishni maqsadga muvofiq hisobladik. Chunki, ekzogen omillarni asosini demografik omillar tashkil etib, aholi iqtisodiy – ijtimoiy geografiyada birinchi navbatda o'rganiladigan tarkibiy qism hisoblanadi. Bu omillarga

aholi soni, dinamikasi, yosh – jinsiy tarkibi, mehnat yoshidagi aholi, mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi[5]. Ikkinchi navbatda ekzogen omillar tadqiq etiladi. Ekzogen omillar asosini moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining tashkil etilishi hisoblanadi. Navoiy viloyati aholi bandligida muhim o'rin tutadigan ishlab chiqarish tarmoqlarga tog'-kon sanoati, metallurgiya, kimyo, elektroenergetika, qurilish materiallari sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligida paxtachilik, qorako'lchilik tarmoqlari muhim o'rin tutadi. Noshlab chiqarishda chakana savdo, ta'lim, tibbiy xizmat ko'rsatish asosiy o'rin tutadi [4].

Aholining ish bilan bandligi darajasi iqtisodiy faol aholi nisbatan tahlil qilinadi. Iqtisodiy faol aholi va ish bilan bandlar bir-biriga yaqin tushuncha bo'lishiga qaramay, Iqtisodiy faol aholi tarkibiga ishga joylashishga muhtoj aholini o'z ichiga oladi [1].

Aholining ish bilan bandligining hududiy tafovutlarini 2010-2023-yillarda o'zgarishini tahlil qilganimizda quyidagi natijalarni ko'rishimiz mumkin. 2010-yida Navoiy viloyati aholi bandligida hududlar ulushida viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar, ya'ni, Navoiy, Zarafshon shaharlari va sug'orma dehqonchilik tumanlari Karmana, Navbahor, Qiziltepa, Xatirchi tumanlarining hissasi yuqori bo'lgan(8,9-20,52 foizgacha). Tog' va tog'oldi yaylov chorvachiligiga ixtisoslashgan Nurota tunanida viloyat aholi bandligidagi ulushi ham yuqoridagi mintaqalarga xos bo'lib 9.2 foizni tashkil etgan. Cho'l yaylov chorvachiligiga

ixtisoslashgan Konimex, Uchquduq, Tomdi tumanlari viloyat aholi bandligidagi ulushi juda kichik bo'lib, 2.1- 6.2 foizni tashkil etgan xolos [2].

2023-yilda aholining ish bilan bandligining hududiy tafovutlarini tahlil qilganimizda hududlarning viloyatdagi ulushida o'zgarishlar kuzatildi. Navoiy shahri, Konimex, Qiziltepa, Xatirchi tumanlarida band aholining ulushi o'sgan bo'lsa, Zarafshon shahri, Navbahor, Karmana, Nurota, Tomdi, Uchquduq tumanlarida kamayganligini ko'rishimiz mumkin. G'ozg'on shahri o'rganilayotgan davrda yangi tashkil etilgan (1.2. Rasm.).

2010



1.1. Rasm. Navoiy viloyati aholi bandligida hududlar ulushi (2010 yil foizda)

2023



1.2. Rasm. Navoiy viloyati aholi bandligida hududlar ulushi (2023-yil foizda)

Qishloq tumanlarida tafovut juda katta bo'lib, mehnat resurslarining xo'jalikda bandligiga ta'sir darajasiga ko'ra quyidagicha rayonlarga ajratishimiz mumkin;

I. Sug'orma dehqonchilik rayoni Karmana, Navbahor, Qiziltepa, Xatirchi tumanlari va Navoiy shahri.

II. Tog' va tog'oldi yaylov chorvachiligi rayoni Nurota tumani va G'ozg'on shahri

III. Cho'l yaylov chorvachiligi rayoni Konimex, Uchquduq, Tomdi tumanlari va Zarafshon shahri

1.1. Jadval. Navoiy viloyati aholisi va mehnat resurslarining qishloq xo'jaligi rayonlari bo'yicha taqsimlanishi

Rayonlar	Jami aholi		Mehnat resurslari		Iqtisodiy faol aholi		Band aholi	
	Ming kishi	Foiz	Ming kishi	Foiz	Ming kishi	Foiz	Ming kishi	Foiz
Sug'orma dehqonchilik rayoni	779.6	73.9	415.8	71.1	317.7	69.8	297.8	69.8
Tog' va tog'oldi yaylov chorvachiligi rayoni	97.1	9.2	51.4	8.8	40.8	9.0	37.9	8.8
Cho'l yaylov chorvachiligi rayoni	178.8	16.9	117.7	20.1	96.5	21.2	90.7	21.3

Jadval Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

- Sug'orma dehqonchilik rayoni tumanlarida aholi zichligi nisbatan yuqori; har kvadrat kilometr yerga Karmana tumanida 144.4 kishi, Navbahor tumanida 75.7 kishi, Qiziltepa tumanida 72.7 kishi va Xatirchi tumanida 147.7 kishini tashkil etadi. Sug'orma dehqonchilik rayoni hududda aholi soni yuqori o'sish ko'rsatkichlariga ega. Hududlar aholi dinamikasini tahlil qilganimizda Navoiy shahrida 108,3 foiz, Karmana tumanida 198.1 foiz, Navbahor tumanida 157.1 foiz, Qiziltepa tumanida 149.6 foiz va Xatirchi tumanida 149.8 foizga ko'paygan. Mazkur rayonda mehnatga band aholi soni 297.8 ming kishini tashkil etgan holda viloyatdagi ulushi 69.8 foizni tashkil etadi.

Navoiy shahrida rayon xususiyatidan farq qilgan holda aholi sonining dinamikasi o'rtacha ko'rsatkichni tashkil etgan. Shahar aholisining o'sishiga tabiiy ko'payish, migratsiya va ekologik omillar kuchli ta'sir ko'rsatgan. Aholining tabiiy o'sishi qishloq tumanlariga nisbatan past. O'rganilayotgan davrning dastlabki yillarida emigratsiya jarayoni yuqori bo'lib asosan, rusiyabon aholi ishtirok etgan. Ekologik sharoit tufayli aholi asosan shahar atrofidagi qishloq tumanlarida jo'lashadi va mayatniksimon migratsiya ko'rinishida qatnab ishlaydi. Mehnatda band aholining asosiy qismi sanoat korxonalari va ijtimoiy sohada ishlaydi[3].

Karmana tumani aholisi soni 2000-2023-yillar oralig'ida o'sish ko'rsatkichi eng yuqori darajani tashkil etdi. O'rganilayotgan davrda tuman aholisi soni deyarli ikki baravarga ko'paygan bo'lib, yuqori darajada o'sishga eng avvalo, migratsiya va shahar atrofida joylashganligi asosiy omillar hisoblanadi. Band aholi asosan sanoat tarmoqlarida, qishloq xo'jaligida, xizmat ko'rsatish sohasida ishlaydi. Aholining katta qismi Navoiy shahriga qatnab ishlaydi,

Qiziltepa tumani aholining umumiy soni dinamikasida o'rganilayotgan davrda doimiy o'sish kuzatildi. Ushbu davrda tuman aholisi deyarli 150 foizga ko'paygan bo'lib o'rtacha yillik o'sish 2.2 foizga to'g'ri keldi. Bunday o'sishning asosiy omili tabiiy ko'payish hisoblanadi. Tuman aholisining asosiy qismi dehqonchilik, qurilish, xizmat ko'rsatish va sanoat tarmoqlarida band.

Xatirchi tumani viloyatda aholi-soni bo'yicha yetakchi hisoblanib, doimiy aholisi soni 2023-yil yanvar holatiga 209,8 ming kishini tashkil etadi. O'rganilayotgan davrda tuman aholisi soni viloyat bo'yicha eng ko'p kishiga o'sgan bo'lib, doimiy aholi 69.5 ming kishiga ko'paygan. Aholi sonining o'sish dinamikasi buyicha Karmana tumanidan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi. Aholi sonining yuqori o'sishiga asosiy omil sifatida, Tuman asosan sug'orma dehqonchilik mintaqasida joylashgan bo'lib, aholining asosiy qismi qishloq aholi manzilgohlarida istiqomat qilishi bilan bog'liq. Tuman aholisining katta qismi qishloq xo'jaligida band bo'lib, sug'oriladigan mintaqalarda dehqonchilik, tog'oldi hududlari chorvachilik bilan shug'ullanadi.

Navbahor tumani aholi soni o'sish dinamikasi bo'yicha yuqori o'rinlarda turuvchi ma'muriy birliklar qatorida turadi. O'rganilayotgan davrda tuman aholi soni doimiy o'sishda bo'lgan, ayrim yillarda tezroq o'sgan. Jumladan, 2010-2015-yillarda eng yuqori o'sish kuzatilgan. Tuman aholisining tez o'sishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatgan. Tuman asosan sug'orma dehqonchilik mintaqasida joylashganligi, aholining asosiy qismi qishloq aholi manzilgohlarida istiqomat qilishi. katta shahar atrofida joylashganligi ichki va mayatniksimon migratsiya kabi omillarning ta'siri yuqori. Band aholi asosan sanoat tarmoqlarida, qishloq xo'jaligida, xizmat ko'rsatish sohasida ishlaydi. Aholining katta qismi Karmana tumanidek Navoiy shahariga qatnab ishlaydi,

- Tog' va tog'oldi yaylov chorvachiligi rayoni; aholi zichligi past hisoblanib har kvadrat kilometr yerga Nurota tumanida 14,8 kishi to'g'ri keladi. Nurota tumanida aholi soni o'rganilgan davrda 16.4 ming kishiga ko'payib

umumiy o'sish 122 foizga to'g'ri keladi. Rayonda mehnatga band aholi soni 37.9 ming kishini tashkil etgan holda viloyatdagi ulushi 8.8 foizni tashkil etib, mehnatda band aholi soni bo'yicha oxirgi o'rinni egallaydi O'rganilayotgan davrda G'ozg'on shahri Nurota tumani tarkibida bo'lgan. 2019-yil 3-mavda O'zbekiston Respublikasi Oliv Mailisi Senatining qaroriga muvofiq, Navoiy viloyatida G'ozg'on shahri tashkil etilib, bugungi kunda bu yerda 9,1 ming aholi istiqomat qilmoqda. Nurota tumanida aholi sonini dinamikasida o'rganilayotgan davrda juda sekin o'zgargarish kuzatildi. Tumanda aholining tabiiy ko'payishi yuqoriligidan qaramay ichki va tashqi migratsiya manfiy saldoga ekanligi katta ta'sir ko'rsatmoqda. 2020 yildan boshlab aholi sonining kamayishiga asosiy sabab 9.1 ming kishi G'ozg'on shahrining tashkil etilganligi tufavli vuz bergan. Ravon aholisining bandligida chorvachilik vetakchi o'rinni egallaydi. Nurota shahrida turizm va xizmat ko'rsatish sohalari asosiy o'rinni egallagan holda G'ozg'on shahrida marmar qazib olish va pardozlash sohaslarida aholi band.

- Cho'l yaylov chorvachiligi rayoni, Ushbu rayonda aholi nihoyatda siyrak joylashgan har kvadrat kilometr maydonga Konimex tumanida 4.1 kishi, Tomdi tumanida 0,4 kishi, Uchquduq tumanlari 0.8 kishi (Shahar aholisini hisobga olmasa 0,09 kishi) to'g'ri keladi. Rayonda mehnatga band aholi soni 90.7 ming kishini tashkil etgan holda viloyatdagi ulushi 21.3 foizni tashkil etib, Mehnat resurslari va band aholi juda tarqoq joylashgan.

Konimex tumanini aholisi dinamikasida o'rganilgan davrda pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, 2000-2005, 2005-2010, 2010-2015- yillardagi davrlar mobaynida aholi soni doimiy kamayib borgan bo'lib 2010-2015-yillar oralig'ida eng katta kamayish kuzatildi. Tuman aholisining kamayib borishiga ichki va tashqi migratsiya manfiy saldoga ekanligi katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Uchquduq tumanini aholisi dinamikasida o'rganilgan davrda pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, 2000-2005, 2005-2010, 2010-2015-yillardagi davrlar mobaynida

aholi soni doimiy kamayib borgan. Tuman aholisining kamayib borishiga ichki va tashqi migratsiya manfiy saldoga ekanligi katta ta'sir ko'rsatmoqda. Asosan qishloqladan ommaviy ko'chib ketish jarayoni kuzatildi.

Tomdi tumanini aholisi dinamikasida o'rganilgan davrda pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, 2000-2015-yillardagi davrlar mobaynida aholi soni doimiy kamayib borgan. 2015-yildan boshlab 2023- yilgacha aholisi va mehnatga layoqatli aholi dinamikasi barqarorlashgan.

Zarafshon shahar aholi dinamikasida doimiy o'sish bo'lib, mehnatga layoqatli aholi soni ham ortib borgan. Shu bilan birga 2012, 2022-yillarda mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonining oldingi yillardagiga nisbatan kamaygan. Zarafshon shaharda aholi va mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonining o'sishiga tabiiy resurslarni qazib olish va qayta ishlash sanoat korxonalarining mavjudligi, yangi ish o'rinlarini yaratilishi va yuqori maosh berilishini asosiy omil sifatida ko'rishimiz mumkin.

Xulosa. Navoiy viloyati aholining ish bilan bandligining hududiy tafovutlari va ularni rayonlashtirish masalasini tahlil qilganimizda bir qancha hududiy tafovutlar aniqladi. O'rganishlarimizdan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga keldik;

- Navoiy viloyati aholi bandligida hududlar ulushida viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar, ya'ni, Navoiy, Zarafshon shaharlari va sug'orma dehqonchilik tumanlari Karmana, Navbahor, Qiziltepa, Xatirchi tumanlarining hissasi yuqori bo'lgan.

- aholi bandligida hududlar ulushida Zarafshon shahri, Navbahor, Karmana, Nurota, Tomdi, Uchquduq tumanlarida kamaygan.

- sug'orma dehqonchilik hududlarida band aholining asosiy qismi joylashgan

- tog' va tog'oldi, cho'l yaylov chorvachiligi rayonlarida mehnat resurslari va band aholining hissasi kam va tarqoq joylashgan.

Adabiyotlar

1. Abduraxmonov Q.X., Abduraxmonov X.X. Mehnat resurslarini boshqarish "tashakkur bo'stoni". -T.: 2014. 23-26-b.
2. Atajanov I.Sh. Xorazm viloyati mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish muammolari. Diis.-T.: 2002.
3. Ibragimov L.Z. Janubi-g'arbiy O'zbekistonda aholi bandligining iqtisodiy geografik xususiyatlari. Diis. -Samarqand: 2022.
4. Soliyev A.S. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. -T.: -"Universitet". 2014.
5. Qayumov A.A. O'zbekiston mehnat resurslarining shakllanishi va rivojlanishning sotsial geografik asoslari. Diis.-T.: 1994.

REZYUME. Ushbu maqolada Navoiy viloyati aholining ish bilan bandligining hududiy tafovutlari va ularni rayonlashtirish masalalari tahlil qilingan. Aholi bandligida hududlar ulushi, joylashishi o'rganilgan. Ushbu muammoni rayonlashtirish asosida sug'orma dehqonchilik, tog' va tog'oldi yaylov chorvachiligi, cho'l yaylov chorvachiligi rayonlariga bo'lib tahlil qilingan

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируются региональные различия в занятости населения Навоийской области и вопросы их регионализации. Изучены доля и место регионов в занятости населения. На основе районирования данная проблема проанализирована на регионы орошаемого земледелия, горно-предгорно-пастбищного животноводства и пустынно-пастбищного животноводства.

SUMMARY. This article analyzes regional differences in the employment of the population of Navoi region and issues of their regionalization. The share and location of the regions in the employment of the population have been studied. Based on regionalization, this problem was analyzed into regions of irrigated farming, mountain and sub-mountain pasture livestock, and desert pasture livestock.

SHAHAR HOSIL QILUVCHI INDUSTRIYA – XORAZM VILOYATIDA URBANIZATSIYANING AYRIM MASALALARI

D.R.Ro'zmetov – katta ilmiy xodim

Xorazm Ma'mun akademiyasi

Tayanch so'zlar: shahar hosil qiluvchi kuchlar, urbanizatsiya, shaharsozlik, shahar.

Ключевые слова: градообразующие силы, урбанизация, градостроительство, город.

Key words: city-forming forces, urbanization, urban planning, city.

Kirish. Shaharlar qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagani bois, xo'jalikning boshqa tarmoqlari – sanoat, xizmat ko'rsatish sohalari shahar hosil qiluvchi tarmoqlar (korxona, soha, kuchlar, faoliyat) sanaladi. Shahar hosil qiluvchi korxona va monoshaharlar masalasi chuqur o'rganilgan bo'lib, respublikamizda ushbu sohada bajarilgan so'nggi tadqiqotlar J.Ismatov va Sh.Qurbonovlar tomonidan amalga oshirilgan [2].

Ishning maqsadi va vazifalari. Shahar hosil qiluvchi faoliyat turlari va ularning zamonaviy jihatlari hamda Xorazm viloyatida shaharsozlikning bugungi kunda

hududiy tashkil etilishining ayrim muammolarini tavsiflash hamda xulosalar qilish.

Asosiy qism. Shahar hosil qiluvchi korxonada shaharning kamida 30 foiz aholisi faoliyat yuritgandagina u shaharni shakllantiruvchi industriya obyekti sifatida gavydalanadi. Agarda ushbu qiymat ortib borsa shaharni shakllantiruvchi korxona – soha yoki faoliyat turi shahar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati ma'lum bosqichgacha rivojlangan tor xo'jalikli monoshaharligicha qolib ketadi.

Sanoat yoki xizmat ko'rsatishning qaysi sohasiga tegishligiga qarab korxonaning boshqa korxonalarni tortish